

O‘ZBEK VA TURK ERTAKLARI TIPOLOGIK TAHLILI

Bozorov Sardor

Samarqand davlat universiteti

filologiya fakulteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek va turk ertaklarining tipologik tahlili amalga oshirilib, ularning o‘xshash va farqli jihatlari o‘rganilgan. Tadqiqot davomida qahramonlarning umumiy va o‘ziga xos jihatlari tahlil qilinib, har ikki xalq ertaklarining syujet qurilishi va personajlari qiyosiy o‘rganildi. Shuningdek, ertaklarning ijtimoiy va madaniy ahamiyati, ularda aks etgan qadriyatlar ham tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek ertaklari, turk ertaklari, tipologik tahlil, qahramonlar, ertak syujeti, madaniy qadriyatlar.

Kirish. Ertaklar har bir xalqning milliy madaniyatini, hayot tarzini, qadriyatlarini aks ettiruvchi og‘zaki adabiyot namunalaridan biri hisoblanadi. O‘zbek va turk xalqlari uzoq tarixiy ildizlarga ega bo‘lib, ularning ertaklari ham umumiylik va o‘ziga xoslikka ega. Ushbu maqolada o‘zbek va turk ertaklari tipologik jihatdan tahlil qilinadi. Ertaklar orqali xalqning axloqiy qadriyatlari, tarixiy an‘analari va ma‘naviy merosi aks etadi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi – o‘zbek va turk ertaklarining umumiy hamda farqli jihatlari aniqlash va qahramonlar tizimini tahlil qilishdir.

Tadqiqot savollari:

1. O‘zbek va turk ertaklari syujet jihatidan qanday o‘xshashliklarga ega?
2. Ushbu ertaklarda qahramonlarning o‘rni va roli qanday namoyon bo‘ladi?
3. O‘zbek va turk ertaklarining asosiy farqlari nimalardan iborat?

2. Metodologiya

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

Qiyosiy tahlil metodi – o‘zbek va turk ertaklari syujet qurilishi, qahramonlar tizimi jihatidan taqqoslandi.

Strukturaviy tahlil metodi – ertaklarning kompozitsion tuzilishi o‘rganildi.

Tarixiy-tipologik yondashuv – ertaklarning kelib chiqishi va rivojlanishi tahlil qilindi.

Tadqiqot uchun o‘zbek va turk xalq ertaklaridan namunalar tanlandi hamda mavjud ilmiy manbalar asosida tahlil qilindi.

3. Natijalar

3.1. O‘zbek va turk ertaklarining umumiy jihatlari

O‘zbek va turk ertaklari quyidagi jihatlarda o‘xshashlikka ega:

Syujet: Ikkala xalq ertaklarida ham yaxshilik va yomonlik kurashi asosiy syujet yo‘nalishi hisoblanadi.

Syujet tahlili bo‘yicha yondashsak, ikkala xalq ertaklarida ajoyib xos yaqinlik va tafovutlarni ko‘rishimiz mumkin. Masalan, turk xalq ertaklaridagi “Kalo‘g‘lon va tuz” ertagi syujet jihatdan oldingi ertaklaridan biroz farq qiladi. Bunda asosiy urg‘u ertaklardagi “yaxshilik” konseptiga qaratilgan. Syujet strukturasining o‘xshashligi va farqlar deganda quyidagi jihatlarni aytib o‘tsak bo‘ladi:

Har ikki xalq ertaklarida uchraydigan klassik syujet sxemalarida qahramonning sinovlardan o‘tishi, mo‘jizaviy yordamchilar, yovuz kuchlar bilan kurash kabi jihatlarni kiritsak bo‘ladi.

O‘zbek ertaklarida epik ohang kuchli bo‘lib, xalq og‘zaki ijodining boshqa janrlari bilan yaqinligi bevosita amalga oshirilgan.

Turk ertaklarida sarguzasht va qahramonlik elementlari kuchli ekani juda ham kuchli ekanligini “Kalo‘g‘lon” va “Dadaqo‘rqit” to‘plamlari orqali ko‘rib o‘tishimiz mumkin.

Syujet boshlanishi va qahramonning yo'li ham turli ko'rinishlarga ega. O'zbek ertaklarida yaxshi-yomonning aniq ajratilishi, taqdirning oldindan belgilanganligi bu janrning asosiy xususiyati qatoriga kiritiladi. Turk ertaklarida esa qahramonning o'z taqdirini o'zi belgilashi, tasodifiy uchrashuvlar va syujet burilishlarining ko'p uchrashi bilan xarakterlanadi. Umuman olganda ikkala xalq ertaklarida umumiy mutanosibliklar ham mavjud.

Ikkala xalq ertaklarida umumiy motivlar ko'rinishlari ham mavjud. O'zbek ertaklarida pari, dev, ajdarho kabi asosiy motivlar rol o'ynaydi. Aynan shu qahramonlar jasur jangchilarga bajarayotgan topshiriqlarida asosiy yordamchi bo'ladi. Bu o'zbek ertaklaridagi an'ana hisoblanadi. Turk ertaklarida esa yer osti dunyosi, sehrgarlar, shoh qizlari bilan bog'liq motivlar ishtirok etadi. Aynan shu motivlar asosan sehrli ertaklarda asosiy o'rin egallaydi. Ya'ni bu qahramonlar asosiy qahramonlar emas, balki bosh qahramonni maqsadga yetaklovchi obrazidir.

Qahramonlarning maqsadi va natijalari esa alohida e'tirofga sazovor hisoblanadi. O'zbek ertaklarida adolat g'alabasi va jazolash tamoyili aniq ko'rinadi. Bu tushuncha orqali o'zbek ertaklarida adolat har doim qaror topishi haqida so'z boradi. Turk ertaklarida qahramon ba'zan kelishuv yoki yangi hayot boshlash yo'li bilan muvaffaqiyatga erishadi. Bu orqali turk ertaklarida mehmondo'stlik g'oyasi ilgari suriladi. Bunga o'xshash ertaklar bizda ham mavjud. Masalan, "Sehrli uycha" ertagida aynan shu g'oya ilgari surilgan. Bu ertakda keltirilgan she'rlar orqali o'quvchining nutqini ham keng mushohada qilish mumkin. Tez aytish qabilida yozilgan ushbu ertak she'rlari o'quvchi nutqini ravon qiladi.

O'zbek ertaklarida amirlik davri va dehqonchilik bilan bog'liq motivlar ham o'rin tutgan. Bu orqali biz o'zbek xalqining qadimdan o'troq holda yashagani va dehqonchilik bilan shug'ullanganini alohida e'tirof etib ketishimiz mumkin. Umuman olganda, ertaklar xalqning madaniy, nomoddiy merosi. Ertaklarda xalqning xonishi, urf-odatlar va shuningdek orzu-armonlari aks etadi. Turk ertaklarida esa usmoniylar tarixi, ko'chmanchi hayot va urush sahnalari aks etishi. Turkiy xalqlar ko'chmanchi bo'lgani uchun butun hayot

ta'siri ertaklarida ham aks ettiradi. Bu esa turkiy ertaklarida o'ziga xos yo'nalish yarata oldi. Biz tarixda boshqa xalq ertaklaridan ko'ra turkiy ertaklarda urush sahnalari bilan ajralib turadi.

Bu ikkala xalqda qahramonlar ishtiroki ham turlicha shakllarga ega. Bosh qahramonlar odatda jasoratli, zukko va halol bo'ladi. Qahramonlar sifatleri haqida gap ketganda, ularning umumiy xususiyatlari o'xshash va deyarli bir xil.

Ko'pgina ertaklarda sehrli buyumlar va qahramonlar uchraydi. Masalan, o'zbek ertaklaridagi Bo'zbola va turk ertaklaridagi Kalo'g'lon obrazi bir-biriga yaqin. Ikkalasi ham jasorat va donolik timsolidir. Ikkalasi ham umumiydashgan sifatlarga ega obrazlardir.

3.2. Ertaklardagi asosiy farqlar.

O'zbek ertaklarida oilaviy qadriyatlar ustuvor bo'lib, yaxshilik har doim mukofotlanadi. Masalan, "Zumrad va Qimmat" ertagida xulqi yaxshi bo'lgan qahramon baxtga erishadi. Turk ertaklarida esa sarguzasht va hazil ko'proq uchraydi. Masalan, "Kalo'g'lon" obrazida qahramon aqlli va ayyor bo'lib, ko'p hollarda hazil bilan muammolarni hal qiladi.

3.3. Qahramonlarning tahlili.

Natijalarga ko'ra, o'zbek ertaklari an'anaviy qadriyatlarga ko'proq urg'u beradi. Bu orqali o'zbeklar xalq ertaklarini milliy tarbiya vosita sifatida ko'rishadi. Xalqning qadriyatlarini saqlashda juda muhim rol o'ynaydi. Turk ertaklari esa ko'proq sarguzashtlarga boy. Chunki har bir qahramon o'z saviyasiga ko'ra sarguzashtbop qahramon hisoblanadi. Aynan turkcha ertaklarda boshqa xalqlarga qaraganda, biroz ko'proq sarguzasht motivi yetakchilik qiladi.

4. Muhokama

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek va turk ertaklari ko'p jihatdan o'xshash bo'lsa ham, ularning asosiy farqlari mavjud. O'zbek ertaklarida ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarga urg'u berilgan bo'lsa, turk ertaklarida hazil va sarguzasht elementlari kuchli.

Ushbu natijalar xalq og'zaki ijodiyotining milliy xususiyatlarini chuqurroq o'rganishga imkon beradi. Kelajakda mazkur mavzu bo'yicha lingvistik va semantik tahlillar ham olib borilishi mumkin.

5. Xulosa

Mazkur tadqiqot natijasida o'zbek va turk ertaklarining asosiy o'xshash va farqli jihatlari aniqlandi. Asosiy xulosalar quyidagicha: O'zbek va turk ertaklarida yaxshilik va yomonlik kurashi markaziy syujetni tashkil etadi.

O'zbek ertaklarida oilaviy qadriyatlar va odob-axloq me'yorlari asosiy o'rin tutadi.

Turk ertaklarida hazil va sarguzasht elementi ko'proq uchraydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, har ikkala xalq ertaklari o'z madaniyati va tarixini aks ettirib, o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rahimov A. "O'zbek xalq ertaklari", Toshkent, 2015.
2. Demir N. "Türk Masalları Üzerine Bir İnceleme", Istanbul, 2018.
3. Karayev R. "O'zbek va turk ertaklarining qiyosiy tahlili", Toshkent, 2020.
4. Propp V. "Ertaklarning morfologiyasi", Moskva, 1928.